

Bola dedim, asramadim o'zimni,  
Alla aytib, yummas edim ko'zimni.  
Qariganda ortiq sezdim o'zimni,  
Bolam, izlab topolmaysan izimni.  
Endi o'ylab bosar bo'ldim yo'limni,  
Umid bilan boqdim o'g'il-qizimni.

Ko'rgin, bolam, ajin bosgan yuzimni,  
Bolam, izlab topolmaysan izimni.  
Minnat qilma, bolam, bergan tuzingni,  
Behudaga yoshlatmagin ko'zimni.  
Shu dunyoda hurmat qilgin o'zimni,  
Bolam, izlab topolmaysan izimni...

### Tadqiqotlar



**Kamola MUSULMONOVA,**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
"Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika" kafedrasida o'qituvchisi

## LINGVISTIK EKSPERTIZANING UMUMIY METODLARI

**Annotatsiya.** Maqolada lingvistik ekspertiza metodologiyasi va metodologik muammolari atroflicha yoritilgan, ilmiy tadqiqotda qo'llaniluvchi umumiy metodlarning lingvistik ekspertiza o'tkazish jarayonidagi roli aniq misollar asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvistik ekspertiza, metodologiya, metodika, obyekt, metodologik masala, sud tilshunosligi, lingvistik va huquqiy darajalar, tahlil, taqqoslash, deduksiya.

**Annotation.** The article describes in detail the methodology and methodological problems of linguistic expertise, the role of general methods used in scientific research in the process of linguistic expertise on the basis of specific examples.

**Keywords:** linguistic expertise, methodology, method, object, methodological problem, forensic linguistics, linguistic and legal levels, analysis, comparison, deduction.

**Аннотация.** В статье подробно описаны методология и методологические проблемы лингвистической экспертизы, роль общих методов научных исследований в процессе лингвистической экспертизы на конкретных примерах.

**Ключевые слова:** лингвистическая экспертиза, методология, методика, объект, методологический вопрос, судебная лингвистика, лингвистический и правовой уровни, анализ, сравнение, дедукция.

Lingvistik ekspertiza yurisprudensiyada sud-ekspertizalari tarkibida shakllangan bo'lib, tilshunoslikda yangi ilmiy yo'nalish sirasiga kiradi. Ilmiy yo'nalish sifatida baholashimizning o'ziga xos sabablari ham mavjud: lingvistik ekspertizalarni ishlab chiqish va o'tkazish jarayonida lingvistik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish talab etiladi. Bunda tor ixtisoslikdagi bilimlar emas, keng qamrovdagi bilimlar majmuasi kerak bo'ladi. Albatta, lingvist-ekspert ekspertiza jarayonida mavjud tadqiqotlar, lug'at va qo'llanmalardan foydalanishga ehtiyoj sezadi. Turli tipdagi munozarali vaziyatlarda lingvistik bilimlarni joriy qilish va yuridik jihatdan mutanosiblashtirishga ehtiyoj mavjud va bu yildan yilga ortib bormoqda. Savdo belgisi va mualliflik huquqining buzilishi, plagiat, "kod"langan logotip va yorliqlar, matn avtorizatsiyasi, haqorat, tuhmat mazmunidagi yozishmalar, davlat tuzumiga qarshi qaratilgan ekstremistik siyosiy xabarlarida so'zning kontekstual ma'nosi, hatto alohida so'zlarning yozilish ma'nosi va og'zaki matnlar, elektron pochta xabarlari, ijtimoiy tarmoqlardagi "tvit"lar, kiber-jinoyatlarni fosh etish, o'z joniga qasd qilish yozuvlari muallifligi, vasiyatnomalar va politsiyaga berilgan tortishuvli ayblovlar, ekstremistik ruhdagi murojaatlarning asl mohiyatini aniqlash, xulosa chiqarishda lingvistik ekspertizaning o'zni sezilarli darajada o'sdi. Lingvist-ekspert hukm

chiqarmaydi, u hukmga asos bo'luvchi dalillarni tahlil qiladi. Ana shu tahlillar asl jinoyatchi yoki qonunbuzarni aniqlash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Masalan, muallifi noma'lum bo'lgan xatlarni tahlil qilishda ekspert matn muallifining til xususiyatlarini tahlil qilish asnosida ijtimoiy toifasi, kelib chiqish hududi, yoshi, jinsi kabi ma'lumotlarni aniqlashtirib beradi. Bir yoki bir nechta bahsli matnlar mavjud bo'lganda mualliflik atributini aniqlash murakkablashadi. Sud-mualliflik tahlili lingvistikaga qaratilgan barcha darajadagi sintaktik, semantik, leksikologik va nutq, shuningdek, imlo, punktuatsion, stilistik jihatlar tekshiriladi. Ushbu lingvistik xususiyatlarni birlashtirgan holda har qanday matnda muallifning o'ziga xosligi atributga asoslangan. Bahsli matnlar vasiyatnomalar, tahdid xatlari, o'z joniga qasd qilish to'g'risidagi yozuvlar bo'lishi mumkin va hokazo. Ammo so'nggi o'n yil ichida tahlil obyektlari soni o'sdi. Elektron pochta xabarlari, matnli xabarlar va so'nggi tvitlar, Facebook va WhatsApp xabarlari, Instagram, Twitter singari ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar almashinuvi soni oshdi. Ushbu tendensiya sud tilshunosining vazifasini murakkablashtirdi, chunki matn qanchalik qisqa bo'lsa, unda xususiy atributlar shuncha kam bo'ladi. Yoki kishi sha'ni va qadr-qimmatiga tahdid qiluvchi xat, murojaatlarni tahlil qilishda haqorat qiluvchi shaxsga hukm chiqar-

maydi va bu ekspertning vakolati emas. U haqoratning darajasi, ta'sir doirasi, sabab va oqibatlarini tekshirib, yakuniy xulosa beradi. Xulosa hukm xarakterida emas, ekspert mavjud faktlar asosida yashirin jihatlarni yaqqol ochib ko'rsatadi. Albatta, ekspertning zimmasidagi vazifa ham o'ta mas'uliyatli va tajriba talab etadigan jarayon. Ekspert lingvistik ekspertizani amalga oshirish jarayonida turli manbalar, usul va vositalarga tayanaadi. Zero, lingvistik ekspertiza natijasi bevosita sud hukumi yo'nalishiga ta'sir ko'rsatadi. Ekspertiza o'tkazish uchun turli tipdagi ma'lumot va axborotlar bazasi zarur. Biz avvalgi tadqiqotlarimizda lingvistik ekspertizaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatgan edik: 1) qo'lyozma matnlar (shaxsiy yozishmalar, e-mail xabarlar, sms xabarnomalar); 2) hujjat matnlari; 3) konfliktli matnlar; 4) ekstremistik materiallar; 6) reklama matnlari; 7) tovar belgilari; 8) gazeta matnlari lingvistik ekspertizasi.

Albatta, bu ro'yxatni to'liq deb ayta olmaymiz. Lingvistik ekspertiza sud-kriminalistik jarayonlarning jiddiylashuvi va murakkablashuvi asnosida yuzaga kelgan yangi soha ekan, uning tarmoqlari ham kengayib borishi shubhasiz. Xususan, keyingi paytlarda yirik firmalar, tashkilotlar logotiplari bo'yicha ham lingvistik ekspertiza o'tkazish, ekspertiza jarayonida deduktiv va induktiv metodlardan foydalanish mumkin. Deduktiv metodga ko'ra umumiy gipotezalar asosida yaxlit xulosa chiqarish mumkin. Lingvistik ekspertiza jarayonida bu qanday ahamiyat kasb etadi? Bunda tahlilga tortilgan materiallar ustida olib boriladigan tajribalarga emas, balki mantiqiy xulosa chiqarishga e'tibor qaratiladi. Sababi ayrim logotiplar o'zida yashirin belgilar, axborotni tashish vazifasini bajardi.

Umumiy metodlar uch guruhga bo'linadi:

1) empirik tadqiqot metodlari (kuzatish, taqqoslash, o'lchash, eksperiment);

2) nazariy tadqiqot metodlari (abstraktlikdan konkretlikka ko'tarilish va boshqalar);

3) empirik va nazariy tadqiqot metodlari (analiz va sintez, induksiya va deduksiya, modellashtirish, abstraktlashtirish va boshq.).

Lingvistik ekspertizada kuzatish metodidan qanday foydalaniladi va u qanday natija beradi? Odatda, anonim xatlar, haqorat darajasini aniqlashga qaratilgan murojaatnomalar, reklama matnlari va shu kabilarni tadqiq qilishda dastlabki bosqich kuzatishdan boshlanadi. Ekspert yozuv dinamikasi, siyoh xususiyati, ruchka yoki qalam yo'nalishi, varaqdagi bosim kabilarni tekshiruvdan o'tkazadi. Bir necha yozuv shakllari bilan, turli ruchkalardan foydalanib yozuv dinamikasida bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatib va qayd etib boradi. Qo'l yozuvi insonning individual uslubi sifatida belgilanadi. Yozuv malakasi dastavval nusxa olish orqali o'zlashtiriladi. O'qituvchi o'rgatgan harakat liniyasiga taqlidan bolada yozuv ko'nikmasi shakllanadi. Harflarni takrorlash va mashq qilish orqali shaxsning individual xususiyatlari mujassamlashgan yozuv malakasi shakllanadi. Uchta asosiy qo'l yozuvi uslubi mavjud: blok, skript va kursiv. Bloklashda katta harflar (bosh harf)

dan foydalaniladi, bunda tik va ajratilgan harflar bir-biri bilan bog'lanadi. Skript qo'lyozmasi ikkala yuqori qismini ishlatadi va kichik harflar birlashtirilmaydi, ko'pincha bosilgan matnga o'xshaydi. Yozuvdagi o'zgarishlar, asosan, infraqizil nurlari orqali maxsus tekshirishlar orqali aniqlanadi.

Taqqoslash orqali konfliktli matnlar xarakteristikasini yaratish mumkin. Muayyan matnni tekshirishdan oldin kuzatishlar natijasida umumiy xulosalar chiqariladi. Xususan, ayollar nutqi, erkaklar nutqi, yosh toifalariga ko'ra nutqning farqlanishi, hududiy xoslanishga ko'ra nutqning farqlanishi kabi umumiy jihatlari aniqlashtirilganda matn muallifi haqidagi dastlabki fikrlar yuzaga keladi. Ekspert mavjud ma'lumotlar asosida faktlarni aniqlaydi va matnning gender, hududiy xoslanish belgilari xususida xulosasini beradi. Olingan ma'lumotlar o'zaro taqqoslanadi. Ayniqsa, qo'lyozma matnlarda taqqoslash usuli juda qo'l keladi. Nutqni tanib olish va katta miqdordagi ma'lumotlardan ilgari noma'lum bo'lgan bilimlarni olishni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni aniqlashda yozuv materiallari o'zaro taqqoslanadi. Gumon qilinuvchining elektron pochtaasida takrorlanadigan, tez-tez uchrab turadigan naqshlar va o'ziga xos xususiyatlarning kombinatsiyalarini aniqlashga asoslaniladi.

Har qanday shaxsning xoh og'zaki, xoh yozma nutqida individual xususiyatlar saqlanib qoladi. Lingvistik ekspertning vazifasi matnning texnik xususiyatlarini o'rganish emas, balki ana shu individual xususiyatlar orqali matn muallifi haqidagi ma'lumotlarni oydinlashtirish, nutq idiolektlari asosida muallif faktlarini umumlashtirishga qaratiladi. So'zning yashirin ma'nolari, semalari matnning asl mohiyatini aniqlashtirishga yordam beradi. Birgina shior, chaqiriq va murojaat zaminida ekstremistik faoliyatga chorlov, siyosiy to'ntarishga urinish kabilar yashirin bo'lishi mumkin. Umuman, telefon orqali bo'lgan muloqotlar, yozishmalar, haqorat ko'rinishidagi matnlarda kommunikativ vaziyatga e'tibor qaratiladi. Kommunikativ vaziyat tarkibiga 1) muallif; 2) tinglovchi yoki adresant; 3) matn mavzusi (nima deyilgan); 4) matn yaratilgan va idrok etiladigan kod (til); 5) matn, ya'ni til yordamida kodlangan signal; 6) aloqaning umumiy jihatlari (qachon, qayerda, qay yo'sinda, nima maqsadda, qanday vosita bilan va sh.k) kiradi.

Adresant manzilda ma'lum bir tasvirni dastavval gumon qiladi, bunga e'tibor qaratib, umumiy bilim fondidan, umumiy tasavvur bazasidan foydalanadi. Ekspert matnda ushbu bazaning qanday namoyon bo'lganligini o'rganadi. Taqqoslash, kuzatish bilan ham ayrim o'rinlarda lingvist-ekspert yakuniy xulosaga kela olmaydi. Xususan, konstitutsiyaviy tuzumga tahdid soluvchi, milliy, etnik, irqiy, diniy adovatni qo'zg'atish mazmunidagi matnlarni tekshirish paytida ushbu sohaga tegishli mutaxassislarni jalb qilish zarur bo'ladi (siyosatshunoslar, dinshunoslar). Bu xatolardan qochishga, aniq qarorlar chiqarishga yordam beradi.

Shunday qilib, lingvistik ekspertizani o'tkazishda metod va usullarni tanlashda ehtiyotkorlik ham talab

etiladi. Ayrim materiallar jamoaviy mualliflik asosida yoziladiki, bunda matn avtorizatsiyasi, g'oyaviy yo'nalishi, haqorat darajasi kabilarning individual jihatlarini abstraktlashadi. Taqqoslash jarayonida har qanday material o'zaro qiyoslanmaydi. Ekspertizani amalga oshirish jarayonida taqqoslashda ikki jihatga alohida e'tibor qaratilishi kerak: taqqoslash jarayonida eng muhim belgilar inobatga olinishi, shuningdek, taqqoslash o'zaro umumiylik jihatlarini mavjud bo'lgan materiallar ustida amalga oshirilishi lozim. Lingvistik ekspertizani amalga oshirishda eksperiment va o'lchash metodlarini samarali deb bo'lmaydi. Eksperiment tabiiy sharoitda o'rganishga mo'ljallangan obyektlar uchun xoslangan. Lingvistik ekspertiza uchun esa eksperiment o'tkazish uzoq jarayon.

Tahlilning analiz metodiga to'xtalamiz. Analiz metodi butunni tashkil etgan qismlar, bo'laklar, tomonlar, elementlar, ularning butun tarkibidagi o'rni aniqlanadi. Analiz orqali predmet va hodisalarning tarkibi, tuzilishi o'rganiladi va bilinadi. Qo'lyozmalarni taqqoslash,

jumladan, bosma nashr, imzolar va raqamlar, urushni targ'ib qiluvchi, ijtimoiy xavfsizlikka daxl qiluvchi materiallarni tahlil qilishda analiz metodidan foydalaniladi. Ba'zida ekspertlar matnning "kod"ini ochishda uni qismlarga bo'lishni yoqlamaydilar, aksincha, yaxlit va tizimli tahlil qilishni ma'qul ko'rishadi. Aslida analiz ekspertizada asosiy rol o'ynovchi vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Konfliktli matni analiz qilishda hujjatning tayyorlanish texnikasiga, ya'ni yozuv quroli, siyoh, qog'oz holati, yozuv bosimiga (qo'lyozma matnlarda) diqqat qilish zarur. Bunday belgilarni alohida qismlarga bo'lib tekshirish muallif haqidagi ma'lumotlarni aniqlashtirishga yordam beradi.

Lingvistik ekspertizani amalga oshirishda induksiya va deduksiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faktlarni aniqlash va tahlil qilish jarayonida faktlar umumlashtiriladi va xususiy xulosalar chiqariladi. Deduksiya usulini quyida ko'rib chiqamiz:

Yuqorida ijtimoiy tarmoqlardan olingan, haqorat ele-



Nimaga oddiy xalqqa keganda qonun amaldorlarga adndewa uzb matbuot buni jimjimador qilib kursatiwni bopledi

Nimaga davlat amaldorlari gaznani yib bitirsa matbuot jim nimaga (neptezim) avj olgan mamlakatda yawasekda matbuot jim

Nimaga



Qaysidir kazyol bu qonunni oylab topgan va ongi pastlarni ozi bilan ergawtirmoqchi

Yonrdi - .lavnh vazish - 13w



Masalan Birovvi narsasi o'g'irlasa , birovvi moshnada urib ketsa xabar qisin gap yo bunga . Ln adawib palasa bosgan adawib zaprison joyda toxtab qogan oilasini boqaman db kocha yurganlani ustidan terpit qilib nma bor.

Yoqdi - Javob yozish - 13w

mentlari qo'llangan turli toifa kishilari nutqidan namuna keltirilgan. Har bitta nutqda ishtirok etgan haqorat mazmunidagi so'zlarni aniqlashtirib olamiz: *neptizm* (*aslida nepotizm*), *kazyol*, *ongi past*, *terpit*. Nutq vaziyati, obyekti, so'zning kontekstual ma'nosidan kelib chiqqan holda yuqoridagi misollarni tahlilga tortamiz. Birinchi keltirilgan misolda mamlakatga nisbatan *nepotizm* so'zi ishlatilmoqda. Bu mohiyatan tahlil qilinganda tuhmat ko'rinishidagi ayblov bo'lishi mumkin. Buni nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda tahlil qilish lozim. Yuqorida keltirilgan har bir misolni deduksion metod orqali tahlil qilishga harakat qilamiz.

Xulosa asosi	Xulosa	Almashtirish usuli
1. A hamma S – P	A hamma P – S	sof almashtirish
2. E hech bir S – P emas	E hech bir P – S emas	sof almashtirish
3. I ba'zi S – P	I ba'zi P – S emas	sof almashtirish
4. A hamma S – P	A hamma P – S	toraytirilgan almashtirish
5. I ba'zi S – P	I ba'zi P – S	kengaytirilgan almashtirish

Xulosa asosi deduksiyaga asoslangan. Demak, hayvon nomlari bilan bog'liq haqorat ayrim so'zlar guruhi (*eshak, kozyol, xameleon, cho'chqa, to'ng'iz, it*) ba'zi holatlarda haqorat bo'lishi, ba'zi holatlarda esa haqorat bo'lmasligi mumkin.

Deduksiya metodini qo'llash haqorat bilan bog'liq lingvistik ekspertizalarning barchasida ham qo'l kelavermaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan, *neptizm* so'zi bilan bog'liq matnni deduktiv metod orqali tahlil qilamiz. Yuqoridagi jadvalga muvofiq xulosa beradigan bo'lsak, quyidagicha umumlashmalar yuzaga keladi:

- 1) nepotizm bilan bog'liq hamma so'z – haqorat;
- 2) haqoratli so'zlarning hammasi nepotizm bilan bog'liq;
- 3) yoki ba'zi nepotizm bilan bog'liq so'zlar haqorat;
- 4) ba'zi haqoratlar nepotizm bilan bog'liq.

Xulosaning ikkinchi qismi mantiqan to'g'ri. Davlat, hokimiyat organlarini qavm-qarindoshchilikka asoslangan hokimiyat sifatida e'tirof etish zahirida turli mazmun-mohiyat mavjud. Ayrim holatlarda (yuqoridagi misol bundan mustasno) bu tajovuz, to'ntarishga chaqiriq

mazmunini bildirishi mumkin. Shu sababdan lingvistik ekspertizani amalga oshirishda metodni to'g'ri tanlay bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat haqorat bilan bog'liq matnlar lingvistik ekspertizasida, balki lingvistik ekspertizaning boshqa turlarida ham e'tibor qaratish lozim bo'lgan metodologik masalalardan biri.

Aytib o'tish joizki, umumiy metodlar turli tipdagi lingvistik ekspertizalarni o'tkazishda qo'llaniladi. Ulardan ayrimlari keng doirada, ayrimlari tor doirada ishlatiladi. Umumiy metodlar ekspertizada ochqich vazifasini bajaradi. Bir konfliktli matnning lingvistik ekspertizasida umumiy metodlarni qo'llash orqaligina xulosa chiqarish yaramaydi. Demak, lingvistik ekspertizaning barcha turlarida empirik-nazariy metodlarning ayrimlaridan, nazariy tadqiqot metodlarining deyarli barchasidan foydalanish mumkin. Istisno holatlar konfliktli matn mazmuni, nutq vaziyatidan kelib chiqishi va bunday holatlarda lingvist-ekspert umumiy metodlarni tanlashni o'z ixtiyori, mavjud vaziyat taqozosiga ko'ra belgilashi mumkin.

**Nigora PARDAYEVA,**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

## SHOIRA ANBAR OTINNING IJODKOR NABIRASI VA UNING ASARINI BILASIZMI?

**Annotatsiya.** Maqolada shoira Anbar Otinning nabirasi Yusufjon Akbarovning "Anbar Otin fojiasi" asari tahlilga tortilgan. Asardagi Anbar Otin hayoti, ijodi, ustozlari haqidagi muhim ma'lumotlar tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Yusufjon Akbarov, "Anbar Otin fojiasi", ustoz, Uvaysiy, g'azal, hajv, tahlil.

**Annotation.** The article analyses the work "The tragedy of Anbar Otin" by Yusufjon Akbarov, the grandson of the poetess Anbar Otin. Important information about the life, work and teachers of Anbar Otin is studied in the work.

**Key words:** Yusufjon Akbarov, "The tragedy of Anbar Otin", teacher, Uvaysi, ghazal, satire, analysis.

**Аннотация.** В статье анализируется произведение Юсуфджона Акбарова «Трагедия Анбара Отина», внука поэтессы Анбара Отина. В работе изучаются важные сведения о жизни, творчестве Анбара Отина.

**Ключевые слова:** Юсуфджон Акбаров, «Трагедия Анбара Отина», учитель, Увайсий, газель, юмор, анализ.

Anbar Otin ijodini o'rganish o'tgan asrning 60-yillarida boshlangan. Biroq shoira hayoti va ijodi yuzasidan haligacha o'z yechimini kutayotgan ko'p bahs-munozaralar mavjud. Bu esa adabiyotshunoslarimiz oldiga shoira ijodi yuzasidan chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, shoira adabiy merosini puxta o'rganish kabi vazifalarni qo'yadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida shoira-ning hayot yo'li, ijodi yuzasidan nisbatan to'liq ma'lumot beradigan "Anbar Otin fojiasi" nomli asar aniqlandi. Asar milliy adabiyotimiz rivojiga o'z asarlari bilan hissa qo'shgan shoir Yusufjon Akbarov tomonidan yozilgan.

Yusufjon Akbarov shoiraning nabirasi, ya'ni Anbar Otinning to'ng'ich farzandi Bibixonimning o'g'li. U 1912-yilda Qo'qon shahrida tug'ilgan. Huzuriy taxallusi bilan ijod qilgan. Shoir ko'plab izlanishlari, yoshi ulug' kishilar bilan suhbatlari natijasida buvisi shoira Anbar Otin haqida "Anbar Otin fojiasi" nomli asarini yaratgan.

Ushbu asar muqaddimasida shoir asarni yozishi haqida shunday deydi: "Ushbu to'plamni tuzishga meni bir necha muammo taqozosi majbur etdi. Anbar Otinning yoshgina vaqtida inqilobiy-demokratik harakatga shunchalik ichkari kirib borishi siriga tushunmagan bir xil odamlarning, hatto adabiyotchilarning shubhasini bartaraf etish borasida juda ko'p izlandim. O'z katta onam Ashurbibining barhayot vaqtlarida va xolalarim borligida ulardan aniq epizodlarni eshitib, bilib oldim. Yana bir afsonaviy ko'p yoshga kirgan Shayxulislom guzarlik 164 yoshli Eshon-Dada ismli odamning o'z ko'zlari bilan ko'rgan voqealarini hamda o'z zimning eng birinchi ustoz-muallimim Po'latjon Qayumovdan ham tarixlar tinglab, "Anbar Otin fojiasi" to'plamini tuzdim". [2: 1]

Ko'rinadiki, shoir Y. Akbarov buvisining hayoti va adabiy merosi, uning jamiyatga bo'lgan munosabati haqida ushbu asari orqali ma'lumot berishga harakat qiladi.